XALQ DEPUTATLARI QARSHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 2-dekabr VII-3-013-4-59-K/24 Qarshi tumani

Qarshi tumani mahalliy budjetining 2024-yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirilib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 126-moddasiga muvofiq tuman hokimligining tuman mahalliy byudjetining 2024 yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirilib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib, shuningdek, xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarinining takliflarini inobatga olib, O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimligining Qarshi tumani mahalliy budjetining 2024-yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirilib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Tuman hokimining hisobotiga asosan budjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlarni saqlash harajatlari hamda byudjetga ko‘zga tutilmagan kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlarga ajratilgan tuman mahalliy budjetining 2024 yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirilib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘larni maqsadli sarflanishi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (X.Turdiyev) , tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (Sh.Sattorov) bilan birgalikda:

- O’zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining talablari asosida tuman mahalliy budjetining tasdiqlangan parametrlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlarini kiritish;
- ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy budjetiga qaytarish choralari ko‘rilsin.

4. Tuman G‘aznachilik xizmati bo‘limi boshlig‘i (D.Shukurov) ajratilgan mablag‘larbo‘yicha shartnomalarni o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va harajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror "e-ijro.gov.uz" elektron tizimi orqali manfaatdor tomonlarga etibborishi inobatga olinsin.

6. Mazkur qaror ijrosining nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Qurbonova) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (X.Turdiyev) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi ALIKULOV ZOIR XALILOVICH

Xalq deputatlari Qarshi tumani
Kengashining
2024-yil 2-dekabrdagi
VII-3-013-4-59-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Tuman mahalliy budjetining 2024-yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirilib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida

№	Tadbirlarning nomi	Ajratiladigan Mablag’ (mln.so’m)	Manbasi
1	Tuman hokimligiga, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-noyabrdagi 930-sonli qaroriga asosan tuman hokimligi ma’muriy binosini Qo‘riqlov xizmati uchun	100,0	2024 yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirilib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar hisobidan
2	Tuman hokimligiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risi”dagi PQ-4102-sonli qarori ijrosi yuzasidan sektorlarning internet xizmatlari, tuman hokimligi audio va video selektor xizmatlari, tuman hokimligi himoyalangan internet xizmati, tezkor elektron pochta aloqa xizmatlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida inson resuruslarini boshqarishga oid ma'lumotlar va hujjatlarni tuman hokimligi “hrm.argos.uz” elektron platformasida shakllantirish va xizmatidan foydalanish xarajatlari uchun	80,8	2024 yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirilib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar hisobidan
3	Tuman hokimligiga, O‘zbekiston Xalq Demokratik partiyasi Qarshi tumani Kengashi binosi ijara to‘lovlari uchun	6,8	2024 yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirilib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar hisobidan

4	Tuman hokimligiga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 31-iyuldagi 318-F-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan “Ozodlikdan mahrum etilgan va aniq yashash joyi bo‘lmagan shaxslarni qabul qilish va taqsimlash, joylardan bo‘shatilgan Respublika fuqarolariga bir marotabalik moddiy yordam ko‘rsatish va ijtimoiy ko‘nikma markazlarini muntazam ta’minlash to‘g‘risida”gi nizomiga asosan tuman hokimligi huzuridagi muqaddam sudlanganlarni ijtimoiy himoyalash ko‘nikma markaziga, muqaddam sudlanganlar jazonii jro etish muasssalaridan ozod etilgandan so‘ng beriladigan bir marotabalik moddiy yordam mablag‘lari uchun	20,7	2024 yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirilib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar hisobidan
5	Tuman hokimligiga, hokimlik hisobida bo‘lgan engil xizmat avtomashinalarining yoqilg‘i sarfi bilan bog‘liq xarajatlari uchun	29,1	2024 yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirilib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar hisobidan
6	Tuman hokimligi va Iqtisodiyot va moliya bo‘limiga, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati xodimlari, tuman hokimligi qabulxona va ko‘nikma markazi, Iqtisodiyot va moliya bo‘limining raxbar apparat texnik xizmatchi xodimlarining lavozim vazifalarini muddatlarida va sitqidildan bajarilisini ta’minlashda ularga shart-sharoitlar va moddiy ta’minotlarini yaxshilash, kadrlar qo‘nimsizligi va ular o‘rtasidagi korrupsiyaviy muhitni shakllanishini oldini olish, hodimlarni va ularning oila a’zolarini moddiy va ma’naviy qo‘llab quvvatlash hamda ish samaradorligini oshirish maqsadida 2024-yil oktabr oyi uchun qo‘shimcha har oylik to‘liq ish haqi fondining bir barobaridan ikki barobarigacha qo‘shimcha ustama va rahbatlantirish pullarini to‘lash harajatlari uchun	154,0	2024 yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirilib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar hisobidan

7	Tuman hokimligiga, hokimlik hisobida bo‘lgan engil xizmat avtomashinalariga extiyot qismlar sotib olish va tamirlash bilan bog‘liq xarajatlari uchun	30,0	2024 yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirilib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar hisobidan
8	Tuman hokimligiga, tuman hokimligi mamuriy binosi elektr energiyasi va tabiiy gaz istemoli uchun	14,0	2024 yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirilib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar hisobidan
9	Tuman hokimligiga, tuman hokimligi extiyoji uchun zarur xojalik mollari va kanselyariya tovarlari sotib olish bilan bogliq xarajatlariga	4,0	2024 yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirilib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar hisobidan
10	Tuman hokimligiga,Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro`yxatdan o‘tkazishning yagona elektron “E-qaror” dasturiy ta’minoti tizimidan foydalanish xizmatlari uchun	12,3	2024 yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirilib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar hisobidan
11	Tuman hokimligiga, sudlarga davo arizalari kiritishda pochta xarajatlari uchun, O‘zbekiston Respublikasi bosh prokuraturasi huzuridagi majburiy ijro byurosi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi Qarshi tumani bo‘limi xatiga asosan ijro varaqalari va davlat bojlari undiruvi uchun	10,0	2024 yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirilib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar hisobidan

12	Tuman maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limiga, kanselyariya tovarlari va qogo‘z olish uchun	5,0	2024 yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirilib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar hisobidan
13	Tuman hokimligiga, hokimlik Tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari hamda mutaxassisini o‘ziga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan bajarganligi, belgilangan reja topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli tarzda yakuniga yetkazganligi hamda samarali ish tashkil etganligi uchun quyidagi tuman hokimligi xodimlari bir oylik lavozim maoshi miqdorida moddiy rag‘batlantirish uchun	6,1	2024 yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirilib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar hisobidan
	Tuman hokimligiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-5072-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi “Tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-666-IV-sonli “Tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomiga asosan	434,0	2024 yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirilib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar hisobidan
	Tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasiga, yashil makon loyihasi doirasida kuz-qish mavsumiga har xil turdagi daraxtlar va manzarali gul ko‘chatlari sotib olish uchun	94,0	2024 yil 3-chorak daromadlar rejasining oshirilib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar hisobidan
	Jami:	**1000,8**	

Izoh. Ajratiladigan mablag‘lar miqdoriga yakuniy hisob-kitoblar va loyiha-smeta hujjatlariga o‘zgartirish kiritilishi mumkin**.**